

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov

akademiyasi Kengashi raisi



H-M.Isoqov

**O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi
Odil sudlov akademiyasi Kengashi majlisining
4-son BAYONNOMASI**

2025 yil 24 oktyabr

Toshkent shahri

Raislik etuvchi:

H-M.Isoqov yu.f.n., professor – Odil sudlov akademiyasi Kengashi raisi,

Ishtirok etdilar:

Odil sudlov akademiyasi Kengashining a'zolari:
DSc, professor D.U.Aripov, yu.f.d., professor
I.I.Nasriyev, yu.f.n., dotsent S.B.Xolbayev,
U.Q.Mingboev, yu.f.d., professor Sh. Haqnazarov
onlayn tarzda (Zoom orqali): A.Jalilov yu.f.n,
dotsent M.P.Qalandarova, yu.f.d., professor
M.X.Rustambayev., yu.f.d., professor
K.V.Yevgeniy., yu.f.d., professor
M.Rahmonqulov, Sh.Polvonov.

Kengash kotibi – yu.f.f.d (PhD), F.Madiyev.

**Majlisga taklif
etilganlar:**

Odil sudlov akademiyasi tarkibiy bo‘lim rahbarlari.

K U N T A R T I B I:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi binosiga kirish-chiqish va uning hududida bo‘lish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomani tasdiqlash;
2. “O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi tinglovchilari uchun ichki tartib qoidalarini”ni tasdiqlash;
3. “Odil sudlov akademiyasi professor-o‘qituvchilari va tinglovchilari reyting ko‘rsatkichlarini shakllantirish tartibi”ni tasdiqlash;
4. O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Fuqarolik-huquqiy fanlar kafedrasida dotsenti Muxitdinova Farruha Faxriddinovnani professor vazifasini bajaruvchi unvoniga tavsiya etish to‘g‘risida;

5. O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ma'muriy-huquqiy fanlar kafedrasini mudiri yu.f.d., prof. B.B.Samarxodjaevning 2025 yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyatini ko'rib chiqish;

6. O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasiga professor-o'qituvchilar lavozimlariga nomzodlarni tanlash.

Raislik etuvchi kun tartibidagi **birinchi masala** yuzasidan so'zlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21 avgustdagi "Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-141-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ustaviga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi binosiga kirish-chiqish va uning hududida bo'lish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnoma tasdiqlash lozimligini aytib o'tdi. Shundan so'ng, haqida to'liq ma'lumot berish uchun so'zni Magistratura fakulteti dekani N.Jurayevga berdi.

N.Jurayev: Assalomu alaykum hurmatli Sudyalar oliy maktabi Kengashi a'zolari, hurmatli Raislik etuvchi. Yuqorida Raislik etuvchi H-M.Isoqov ta'kidlaganidek, "Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-141-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ustaviga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi binosiga kirish-chiqish va uning hududida bo'lish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnoma tasdiqlash lozimligini, mazkur Yo'riqnoma Odil sudlov akademiyasi joylashgan bino (hudud)ga kirish-chiqish va unda bo'lish tartibini belgilashini, Akademiyaning mehnat shartnomasi asosida faoliyat yurituvchi xodimlari, tinglovchilari hamda mazkur bino hududida vaqtincha bo'ladigan shaxslar uchun majburiy hisoblanishini, yo'riqnoma qoidalari Akademiya joylashgan bino (hudud)ga xodimlar, tinglovchilar, boshqa shaxslarning, shuningdek ularga tegishli avtotransport vositalarining kirish-chiqishi, turli mulk va ashyolarni olib kirish va olib chiqish tartibini belgilashini, Akademiya joylashgan bino (hudud)da bo'lish tartibi – Akademiya hududida bo'lgan barcha shaxslar uchun hududda yurish-turish, xizmat xonalarini saqlash, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalari hamda Akademiya binosi (hududi)ga kirish-chiqishning belgilangan qoidalarga muvofiq tashkil etilishi yuzasidan javobgarlik Kadrlar bo'limi zimmasida bo'lishi kabi qoidalar belgilangan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi binosiga kirish-chiqish va uning hududida bo'lish tartibi to'g'risida tasdiqlash"gi Yo'riqnoma loyihasini tasdiqlab berishlaringizni so'rayman.

N.Jurayev o'z fikrlarini yakunlagandan so'ng, raislik etuvchi Kengash a'zolaridan mazkur masala yuzasidan qanday qo'shimcha taklif va mulohazalar borligini, agar taklif va mulohazalar bo'lmasa, "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi binosiga kirish-chiqish va uning hududida bo'lish tartibi to'g'risida tasdiqlash"gi Yo'riqnoma loyihasini tasdiqlash taklifini kiritib, ochiq ovozga qo'ydi.

Tarafdorlar -13 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. N.Jurayevning "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi binosiga kirish-chiqish va uning hududida bo'lish tartibi to'g'risida tasdiqlash"gi Yo'riqnoma yuzasidan bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi binosiga kirish-chiqish va uning hududida bo'lish tartibi to'g'risida tasdiqlash"gi Yo'riqnoma tasdiqlansin.

3. Qaror ijrosini ta'minlash Magistratura fakulteti dekani N.Jurayev, Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekani X.Tojiyev va Kadrlar bo'limi bosh mutaxassis K.Ganibayevlar zimmasiga yuklatilsin.

Raislik etuvchi kun tartibidagi **Ikkinchi masala** yuzasidan so'zlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21 avgustdagi "Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-141-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ustaviga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi tinglovchilari uchun ichki tartib qoidalari"ni tasdiqlash lozimligini aytib o'tdi. Shundan so'ng, haqida to'liq ma'lumot berish uchun so'zni O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i I.Polvonovga berdi.

I.Polvonov: Assalomu alaykum hurmatli Sudyalar oliy maktabi Kengashi a'zolari, hurmatli Raislik etuvchi. Yuqorida Raislik etuvchi H-M.Isoqov ta'kidlaganidek, "Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-141-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ustaviga muvofiq "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi tinglovchilari uchun ichki tartib qoidalari"ni tasdiqlash lozimligini, mazkur qoidalar tinglovchilarning o'zaro hamda Akademiya xodimlari bilan munosabatlarida rioya etishi lozim bo'lgan odob-axloq qoidalari, o'quv intizomi, shuningdek, o'qish jarayoni va o'qishdan tashqari vaqtlarda yurish-turish me'yorlariga oid majburiyatlarini belgilab beradi va sog'lom ma'naviypsixologik muhitni shakllantirish, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashga ko'maklashish; tinglovchilarida ta'lim olish madaniyatini rivojlantirish, ularni Akademiyaning qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash; Akademiyaning nufuzi hamda obro'-e'tiborini asrash, ta'limning zamonaviy nufuzini shakllantirish; odob-axloq qadriyatlarini rivojlantirish, tashqi ko'rinish va xulq-atvorga bo'lgan talablarga oid yagona yondashuvni tadbiiq etish maqsadida ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi tinglovchilari uchun ichki tartib qoidalari" loyihasini tasdiqlab berishlaringizni so'rayman.

I.Polvonov o'z fikrlarini yakunlagandan so'ng, raislik etuvchi Kengash a'zolaridan mazkur masala yuzasidan qanday qo'shimcha taklif va mulohazalar borligini, agar taklif va mulohazalar bo'lmasa, "O'zbekiston Respublikasi Odil

sudlov akademiyasi tinglovchilari uchun ichki tartib qoidalari” loyihasini tasdiqlash taklifini kiritib, ochiq ovozga qo’ydi.

Tarafdorlar -13 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo’yilgan masala Kengash a’zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so’ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. I.Polvonovning “O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi binosiga kirish-chiqish va uning hududida bo‘lish tartibi to‘g‘risida tasdiqlash”gi Yo‘riqnoma yuzasidan bergan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi binosiga kirish-chiqish va uning hududida bo‘lish tartibi to‘g‘risida tasdiqlash”gi Yo‘riqnoma tasdiqlansin.

3. Qaror ijrosini ta’minlash Magistratura fakulteti dekani N.Jurayev, Malaka oshirish va qayta tayyorlash fakulteti dekani X.Tojiyevlar zimmasiga yuklatilsin.

Raislik etuvchi kun tartibidagi **uchinchi masala** yuzasidan so‘zlab, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21 avgustdagi “Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-141-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ustaviga muvofiq “Odil sudlov akademiyasi professor-o‘qituvchilari va tinglovchilari reyting ko‘rsatkichlarini shakllantirish tartibi”ni tasdiqlash lozimligini aytib o‘tdi. Shundan so‘ng, haqida to‘liq ma’lumot berish uchun so‘zni O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i I.Polvonovga berdi.

I.Polvonov: Assalomu alaykum hurmatli Sudyalar oliy maktabi Kengashi a’zolari, hurmatli Raislik etuvchi. Yuqorida Raislik etuvchi H-M.Isoqov ta’kidlaganidek, “Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-141-son Farmoni hamda O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ustaviga muvofiq “Odil sudlov akademiyasi professor-o‘qituvchilari va tinglovchilari reyting ko‘rsatkichlarini shakllantirish tartibi”ni tasdiqlash lozimligini, mazkur Tartib O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi (keyingi o‘rinlarda – Akademiya) professor-o‘qituvchilarining faoliyati hamda sudyalik lavozimlariga nomzodlarni qayta tayyorlash o‘quv kursi tinglovchilarining ta’lim olish samaradorligi ko‘rsatkichlari (reytingi)ni aniqlash mezonlari va tartibini belgilanganligini, baholash har oy yakuniga ko‘ra tegishli bo‘limlar, kafedralar tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlar asosida Akademiyaning Axborot-texnikaviy ta’minot va masofaviy o‘qitish bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi hamda Akademiyaning elektron portaliga joylashtirib borilishni, muayyan muddatlarda (har chorakda, muayyan vazifani bajarish natijalariga ko‘ra va h.k.) baholanadigan faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatkichlar navbatdagi baholash o‘tkazilgunga qadar hisobga olinishini, reyting ko‘rsatkichi “qoniqarsiz” baholangan professor-o‘qituvchining ogohlantirilganidan so‘ng faoliyati takroran ikki marta “qoniqarsiz” baholanishi u bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilinshiga asos bo‘lishini, shuningdek, tinglovchilarning reytingi

har oyda shakllantirib borilishini, Oraliq yoki yakuniy nazorat o'tkazilgunga qadar joriy nazorat 80 (sakson) ballik tizimda baholab borilishini, oraliq va yakuniy nazorat natijalariga ko'ra har bir nazorat turi 80 (sakson) ballik tizimda baholanib, uni nazorat turi soniga bo'lgan holda ($joriy + oraliq + yakuniy ball / 3$) o'rtacha reyting ko'rsatkichi hisoblab chiqilishini, reyting natijasi "qoniqarsiz" baholangan tinglovchi Akademiya tinglovchilari safidan belgilangan tartibda chetlatilishi mumkinligini ma'lum qildi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi tinglovchilari uchun ichki tartib qoidolari" loyihasini tasdiqlab berishlaringizni so'rayman.

I.Polvonov o'z fikrlarini yakunlagandan so'ng, raislik etuvchi Kengash a'zolaridan mazkur masala yuzasidan qanday qo'shimcha taklif va mulohazalar borligini, agar taklif va mulohazalar bo'lmasa, "O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi tinglovchilari uchun ichki tartib qoidolari" loyihasini tasdiqlash taklifini kiritib, ochiq ovozga qo'ydi.

Tarafdorlar -13 ta; qarshilar - 0; betaraflar - 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. I.Polvonovning "Odil sudlov akademiyasi professor-o'qituvchilari va tinglovchilari reyting ko'rsatkichlarini shakllantirish tartibi" yuzasidan bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. "Odil sudlov akademiyasi professor-o'qituvchilari va tinglovchilari reyting ko'rsatkichlarini shakllantirish tartibi" tasdiqlansin.

3. Qaror ijrosini ta'minlash O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i I.Polvonov zimmasiga yuklatilsin.

Raislik qiluvchi kun tartibidagi **to'rtinchi masala** yuzasidan, so'zni ma'lumot berish uchun F.Madiyevga berdi.

F.Madiyev Kengashi a'zolari, hurmatli Raislik etuvchi. Yuqorida Raislik etuvchi H-M.Isoqov ta'kidlaganidek, Odil sudlov akademiyasi Fuqarolik-huquqiy fanlar kafedrasida dotsenti Muxitdinova Farruha Faxriddinovnani professor vazifasini bajaruvchi unvoniga o'z nomzodini ilgari surgan.

Kun tartibidagi ushbu masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2016 yil 28 apreldagi "Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 2793-son qaroriga ilova bilan tasdiqlangan "Ilmiy unvonlar berish tartibi to'g'risida"gi nizomga murojaat qiladigan bo'lsak, ushbu Nizomning 12(g)-bandiga ko'ra, professor ilmiy unvonini olish uchun kamida bir o'quv yili davomida ta'lim muassasasining shtatida kafedra mudiri, professor (vazifasini bajaruvchi), oliy harbiy hamda harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida kafedra boshlig'i o'rinbosari

yoki kafedra boshlig'i lavozimlarida yoki ushbu lavozimlardan birida bir o'quv yili davomida kamida 0,25 stavka o'quv yuklamasini bajargan holda pedagogik faoliyat olib borayotgan muassasa rektori (direktori, boshlig'i), prorektori (direktor o'rinbosari, boshliq o'rinbosari), ilmiy kotibi, ta'lim muassasasining o'quv-tashkiliy tuzilmasi (fakultet, bo'lim) rahbari lavozimlarining birida muvaffaqiyatli ishlab kelayotgan (lavozimida ijobiy o'zgarish bo'lgan hollarda avvalgi lavozimida ishlash muddati ham e'tiborga olinadi) mutaxassislariga beriladi.

Nizomning ushbu talabidan kelib chiqqan holda, Odil sudlov akademiyasi Fuqarolik-huquqiy fanlar kafedراس dotsenti Muxitdinova Farruha Faxriddinovnani kamida bir o'quv yili davomida ta'lim muassasasining shtatida professor vazifasini bajaruvchi lavozimida faoliyat ko'rsatishi lozim bo'ladi.

F.Madiyev o'z fikrini yakunlagandan so'ng, raislik etuvchi mazkur masala yuzasidan kimda qanday taklif va mulohazalar borligini so'rab, majlisda ishtirok etayotgan Kengash a'zolariga murojaat qildi. Ushbu masala yuzasidan Kengash a'zolari tomonidan qo'shimcha fikr va mulohazalar bo'lmadi.

Shundan so'ng, Raislik etuvchi yuqorida qayd etilgan talabdan kelib chiqqan holda Kengash a'zolaridan Akademiya professor-o'qituvchilaridan yu.f.f.d(PhD) Berdiyarov Rahmatjon Tojinorovich, yu.f.f.d(PhD) Madiyev Faxriddin Xoshim o'g'li, yu.f.f.d(PhD) Obidov Tolib Avazxonovichlar dotsent vazifasini bajaruvchi lavozimiga tavsiya etishni yoqlab ovoz berishlarini so'rab, ochiq ovozga qo'ydi.

Tarafdorlar -14 ta; qarshilar – 0; betaraflar – 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILADI:

1. F.Madiyevning Odil sudlov akademiyasi Fuqarolik-huquqiy fanlar kafedراس dotsenti Muxitdinova Farruha Faxriddinovnani professor vazifasini bajaruvchi lavozimiga tavsiya etish haqidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Odil sudlov akademiyasi Fuqarolik-huquqiy fanlar kafedراس dotsenti Muxitdinova Farruha Faxriddinovna professor vazifasini bajaruvchi lavozimiga tavsiya etilsin va tegishli tartibda buyruq bilan rasmiylashtirilsin.

Raislik qiluvchi H-M.Isoqov kun tartibidagi **beshinchi masala** yuzasidan so'z olib, majlis ishtirokchilarini O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ma'muriy-huquqiy fanlar kafedراس mudiri yu.f.d., prof. B.B.Samarxodjaevning 2025 yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyatini ko'rib chiqilishini va uning mazmuni bilan tanishtirdi, Shundan so'ng,

Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyati haqida to'liq ma'lumot berish uchun so'zni B.B.Samarxodjaevga berdi

B.B.Samarxodjaev: B.B.Samarxodjaevning 2025 yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan shikoyat berganligini, lekin murojaati mazmunan Kengashda ko'rib chiqilishida Raislik qiluvchi H-M.Isoqov va Kengash a'zosi A.Jalilov Attestatsiya komissiyasida ishtirok etganlari bois, ularni ushbu masalani ko'rib chiqishda ishtirok etolmasligini ma'lum qilib, Raislik qiluvchi H-M.Isoqov va Kengash a'zosi A.Jalilovni ushbu masala ko'rilishida ishtirok etmasligini so'radi.

Raislik qiluvchi H-M.Isoqov o'zi va kengash a'zosi A.Jalilov Attestatsiya komissiyasida ishtirok etganlari tasdiqlab, Kengash a'zolaridan munosabat bildirishni so'radi.

A.Jalilov yuqoridagi fikrni tasdiqlab, o'zini ushbu masalani ko'rib chiqishda ishtirok etmasligi ma'qul bo'lishini ma'lum qildi.

Raislik qiluvchi H-M.Isoqov komissiyada ishtirok etmagan taqdirda B.B.Samarxodjaevning 2025 yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyatini ko'rib chiqilishi uchun kengashga raislik qilishni kengash a'zosi D.Aripovga vaqtincha Kengashga rahbarlik qilib turishi masalasi bo'yicha ovozga qo'yilib tasdiqlanishi lozimligini ma'lum qildi.

Ushbu taklif kengash a'zolari tomonidan bir ovozdan ma'qullandi.

Ushbu masala bo'yicha kengashga raislik qiluvchi D.Aripov B.B.Samarxodjaevga fikr bildirish uchun so'z berdi.

Raislik etuvchi D.Aripov B.B.Samarxodjaev o'z fikrini yakunlaganidan so'ng, mazkur masala yuzasidan kimda qanday taklif va mulohazalar borligini so'rab, majlisda ishtirok etayotgan Kengash a'zolariga murojaat qildi. Kengash a'zolarida qo'shimcha taklif va mulohazalar bo'lmadi.

Shundan so'ng, raislik etuvchi D.Aripov B.Samarxodjaevning nutqida bildirilgan fikrlar qo'shimcha o'rganish lozimligini inobatga olib keyingi Kengash muhokamis bo'lguniga qadar B.Samarxodjaevning murojaatini bo'yicha yakuniy fikrga qoldirib turish lozimligini ma'lum qilib, majlisda ishtirok etayotgan Kengash a'zolariga murojaat qildi. Kengash a'zolarida qo'shimcha taklif va mulohazalar bo'lmadi.

Raislik etuvchi Kengash a'zolaridan B.B.Samarxodjaevning 2025 yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyatini ko'rib chiqish uchun keyingi Kengash yig'lishiga qoldirish yuzasidan ovoz berishlarini so'rab, ochiq ovozga qo'ydi.

Tarafdorlar -10 ta; qarshilar - 0; betaraflar - 0.

Kun tartibiga qo'yilgan masala Kengash a'zolari tomonidan atroflicha muhokama qilinganidan so'ng, Kengash

QAROR QILDI:

1. B.B.Samarxodjaevning 2025-yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyatini ko'rib chiqishda Raislik qiluvchi

H-M.Isoqov va kengash a'zosi A.Jalilovni murojaatni ko'rib chiqishda ishtirok etmasligi to'g'risidagi iltimosnomasi qanoatlantirilsin.

2. B.B.Samarxodjaevning 2025-yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyati ko'rib chiqishda Kengashga rahbarlik qilish vaqtincha D.Aripovga yuklatilsin.

3. Kengashga vaqtincha rahbarlik qiluvchi D.Aripovning B.B.Samarxodjaevning 2025-yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyati ko'rib chiqish yuzasidan bergan axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. B.B.Samarxodjaevning 2025-yil 26 sentyabrda o'tkazilgan Attestatsiya komissiyasi qarori ustidan berilgan shikoyati ko'rib chiqish va qaror qabul qilish navbatdagi majlis muhokamasiga qoldirilsin.

Raislik qiluvchi H-M.Isoqov **Oltinchi masala** yuzasidan so'z olib, majlis ishtirokchilarini O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Odil sudlov akademiyasi tomonidan Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrasini mudiri, Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi, Fuqarolik-huquqiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi, Kasbiy ko'nikmalar kafedrasini o'qituvchisi lavozimiga tanlov e'lon qilinganligi, tanlov ikki bosqichli sinov asosida o'tkazilishi ya'ni da'vogarlik qilayotgan mutaxassisligi bo'yicha birinchi bosqich test va ikkinchi bosqich ochiq dars mashg'ulotidan iborat ekanligi haqida aytib o'tdi. Shundan so'ng, nomzodlarning shaxsi haqida to'liq ma'lumot berish uchun so'zni Odil sudlov akademiyasi kengashi kotibi F.Madiyevga berdi.

F.Madiyev: Assalomu alaykum hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. Odil sudlov akademiyasi tomonidan "Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrasini mudiri" lavozimiga tanlov e'lon qilingan edi.

Birinchi talabgorning shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman.

1. Babakulov Bekzod Normuxamedovich. 1981-yilda Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahrida tug'ilgan. Ilmiy darajaga ega. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori. O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sudyasi.

Raislik etuvchi mavjud talabgorlarning shaxsi yuzasidan Kengash a'zolarida e'tirozlar bo'lmasa, ochiq mashg'ulotni boshlash mumkinligini ma'lum qildi. Shundan so'ng, B.Babakulovga yigirma daqiqalik vaqt mobaynida o'zi tanlagan mavzu bo'yicha ochiq mashg'ulotni o'tkazdi

Talabgor o'z ma'ruzasini yakunlagandan so'ng, Kengash a'zolari tomonidan savollar berildi. Talabgor bilan savol-javobga asoslangan suhbat o'tkazildi. Talabgor tomonidan o'tkazilgan ochiq mashg'ulot Kengash a'zolari tomonidan baholash mezonlari asosida tegishli ballar bilan baholandi.

F.Madiyev: Hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. Odil sudlov akademiyasi "Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrasini mudiri" lavozimiga ikkinchi talabgorning shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman.

2. Obidov Tolibjon Avazxonovich. 1971-yilda Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumanida tug'ilgan. Ilmiy darajaga ega. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori. Odil sudlov akademiyasi Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrasini o'qituvchisi.

Raislik etuvchi mavjud talabgorlarning shaxsi yuzasidan Kengash a'zolarida e'tirozlar bo'lmasa, ochiq mashg'ulotni boshlash mumkinligini ma'lum qildi. Shundan so'ng, T.Obidov yigirma daqiqalik vaqt mobaynida o'zi tanlagan mavzu bo'yicha ochiq mashg'ulotni o'tkazdi

Talabgor o'z ma'ruzasini yakunlagandan so'ng, Kengash a'zolari tomonidan savollar berildi. Talabgor bilan savol-javobga asoslangan suhbat o'tkazildi. Talabgor tomonidan o'tkazilgan ochiq mashg'ulot Kengash a'zolari tomonidan baholash mezonlari asosida tegishli ballar bilan baholandi.

F.Madiyev: Hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. Odil sudlov akademiyasi "Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrası mudiri" lavozimiga uchinchi talabgorning shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman.

3. Mo'minov Bexzod Abduvaxobovich. 1979-yilda Andijon viloyati, Asaka tumanida tug'ilgan. Ilmiy darajaga ega. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti bosh ilmiy xodimi.

Raislik etuvchi mavjud talabgorlarning shaxsi yuzasidan Kengash a'zolarida e'tirozlar bo'lmasa, ochiq mashg'ulotni boshlash mumkinligini ma'lum qildi. Shundan so'ng, B.Mo'minov yigirma daqiqalik vaqt mobaynida o'zi tanlagan mavzu bo'yicha ochiq mashg'ulotni o'tkazdi

Talabgor o'z ma'ruzasini yakunlagandan so'ng, Kengash a'zolari tomonidan savollar berildi. Talabgor bilan savol-javobga asoslangan suhbat o'tkazildi. Talabgor tomonidan o'tkazilgan ochiq mashg'ulot Kengash a'zolari tomonidan baholash mezonlari asosida tegishli ballar bilan baholandi.

F.Madiyev: Hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. Odil sudlov akademiyasi tomonidan "Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrası o'qituvchisi" lavozimiga tanlov e'lon qilingan edi.

Birinchi talabgorning shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman.

1. Toshev Otabek Sodikovich. 1976-yilda Buxoro viloyati Olot tumanida tug'ilgan. Ilmiy darajaga ega. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori. Toshkent davlat yuridik universitetining Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish kafedrası katta o'qituvchisi sifatida faoliyat yuritib kelmoqda.

Raislik etuvchi mavjud talabgorlarning shaxsi yuzasidan Kengash a'zolarida e'tirozlar bo'lmasa, ochiq mashg'ulotni boshlash mumkinligini ma'lum qildi. Shundan so'ng, O.Toshev yigirma daqiqalik vaqt mobaynida o'zi tanlagan mavzu bo'yicha ochiq mashg'ulotni o'tkazdi

Talabgor o'z ma'ruzasini yakunlagandan so'ng, Kengash a'zolari tomonidan savollar berildi. Talabgor bilan savol-javobga asoslangan suhbat o'tkazildi. Talabgorl tomonidan o'tkazilgan ochiq mashg'ulotlar Kengash a'zolari tomonidan baholash mezonlari asosida tegishli ballar bilan baholandi.

F.Madiyev: Hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. Odil sudlov akademiyasi "Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrası o'qituvchisi" lavozimiga ikkinchi talabgorning shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman.

2. Sattorov Alisher Yarashevich. 1983-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan. Ilmiy darajaga ega. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori. O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudining sudyasi.

Raislik etuvchi mavjud talabgorlarning shaxsi yuzasidan Kengash a'zolarida e'tirozlar bo'lmasa, ochiq mashg'ulotni boshlash mumkinligini ma'lum qildi. Shundan so'ng, A.Sattorov yigirma daqiqalik vaqt mobaynida o'zi tanlagan mavzu bo'yicha ochiq mashg'ulotni o'tkazdi

Talabgor o'z ma'ruzasini yakunlagandan so'ng, Kengash a'zolari tomonidan savollar berildi. Talabgor bilan savol-javobga asoslangan suhbat o'tkazildi. Talabgor tomonidan o'tkazilgan ochiq mashg'ulotlar Kengash a'zolari tomonidan baholash mezonlari asosida tegishli ballar bilan baholandi.

F.Madiyev: Hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. Odil sudlov akademiyasi "Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrası o'qituvchisi" lavozimiga uchinchi talabgorning shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman.

3. Esanbayev Baxrom Baxtiyarovich. 1985-yilda Toshkent viloyatida tug'ilgan. Hozirda vatqincha ishsiz.

Raislik etuvchi mavjud talabgorlarning shaxsi yuzasidan Kengash a'zolarida e'tirozlar bo'lmasa, ochiq mashg'ulotni boshlash mumkinligini ma'lum qildi. Shundan so'ng, B.Esanbayevga yigirma daqiqalik vaqt mobaynida o'zi tanlagan mavzu bo'yicha ochiq mashg'ulotni o'tkazdi

Talabgor o'z ma'ruzasini yakunlagandan so'ng, Kengash a'zolari tomonidan savollar berildi. Talabgor bilan savol-javobga asoslangan suhbat o'tkazildi. Talabgor tomonidan o'tkazilgan ochiq mashg'ulotlar Kengash a'zolari tomonidan baholash mezonlari asosida tegishli ballar bilan baholandi.

F.Madiyev: Hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. Odil sudlov akademiyasi tomonidan "Fuqarolik-huquqiy fanlar kafedrası o'qituvchisi" lavozimiga tanlov e'lon qilingan edi.

Birinchi talabgorning shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman.

1. Faxriddin Esanovich Komilov. 1962-yilda Toshkent viloyati, Bo'ka tumanida tug'ilgan. Ilmiy darajaga ega. Yuridik fanlar nomzodi. Hozirda nafaqada.

Raislik etuvchi mavjud talabgorlarning shaxsi yuzasidan Kengash a'zolarida e'tirozlar bo'lmasa, ochiq mashg'ulotni boshlash mumkinligini ma'lum qildi. Shundan so'ng, F.Komilov yigirma daqiqalik vaqt mobaynida o'zi tanlagan mavzu bo'yicha ochiq mashg'ulotni o'tkazdi

Talabgor o'z ma'ruzasini yakunlagandan so'ng, Kengash a'zolari tomonidan savollar berildi. Talabgor bilan savol-javobga asoslangan suhbat o'tkazildi. Talabgor tomonidan o'tkazilgan ochiq mashg'ulotlar Kengash a'zolari tomonidan baholash mezonlari asosida tegishli ballar bilan baholandi.

F.Madiyev: Hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. Odil sudlov akademiyasi "Fuqarolik-huquqiy fanlar kafedrası o'qituvchisi" lavozimiga uchinchi talabgorning shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman.

2. Abdullayev Elyor Erkinovich. 1981-yilda Andijon viloyati, Andijon tumanida tug'ilgan. "YURISTKADR" advokatlik firmasi advokati.

Raislik etuvchi mavjud talabgorlarning shaxsi yuzasidan Kengash a'zolarida e'tirozlar bo'lmasa, ochiq mashg'ulotni boshlash mumkinligini ma'lum qildi. Shundan so'ng, E.Abdullayev yigirma daqiqalik vaqt mobaynida o'zi tanlagan mavzu bo'yicha ochiq mashg'ulotni o'tkazdi

Talabgor o'z ma'ruzasini yakunlagandan so'ng, Kengash a'zolari tomonidan savollar berildi. Talabgor bilan savol-javobga asoslangan suhbat o'tkazildi. Talabgor tomonidan o'tkazilgan ochiq mashg'ulotlar Kengash a'zolari tomonidan baholash mezonlari asosida tegishli ballar bilan baholandi.

F.Madiyev: Hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. Odil sudlov akademiyasi "Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrası o'qituvchisi" lavozimiga uchinchi talabgorning shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman.

F.Madiyev: Hurmatli bugungi yig'ilish ishtirokchilari. Odil sudlov akademiyasi tomonidan "Kasbiy ko'nikmalar kafedrası o'qituvchisi" lavozimiga tanlov e'lon qilingan, talabgorning shaxsi haqida qisqacha ma'lumot berib o'taman.

Qurbonova Xushvaqt Ashurovna. 1965-yilda Buxoro viloyati, Jondor tumani tug'ilgan. Odil sudlov akademiyasining O'quv-metodik bo'limi bosh mutaxassisi.

Raislik etuvchi mavjud talabgorlarning shaxsi yuzasidan Kengash a'zolarida e'tirozlar bo'lmasa, ochiq mashg'ulotni boshlash mumkinligini ma'lum qildi. Shundan so'ng, X.Qurbonova yigirma daqiqalik vaqt mobaynida ularning o'zi tanlagan mavzu bo'yicha ochiq mashg'ulotni o'tkazishdi

Talabgor o'z ma'ruzasini yakunlagandan so'ng, Kengash a'zolari tomonidan savollar berildi. Talabgor bilan savol-javobga asoslangan suhbat o'tkazildi. Talabgor tomonidan o'tkazilgan ochiq mashg'ulotlar Kengash a'zolari tomonidan baholash mezonlari asosida tegishli ballar bilan baholandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 21 avgustdagi "Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-141-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Ustavining 11, 20-bandlariga muvofiq Kengash

QAROR QILDI:

1. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Odil sudlov akademiyasining "Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrası mudiri", "Jinoyat-huquqiy fanlar kafedrası o'qituvchisi", "Fuqarolik-huquqiy fanlar kafedrası o'qituvchisi" va "Kasbiy ko'nikmalar kafedrası o'qituvchisi" lavozimlariga nomzodlarni tanlash bo'yicha "ma'ruza (ochiq mashg'ulotlar)" o'tkazilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu qaror ijrosini ta'minlash prorektor v.v.b D.Aripov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash kotibi:



F.Madiyev